



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 15-sentabr

VII-13-128-11-0-K/25

Farg‘ona viloyati

Viloyatdagi issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni ko‘rib chiqish va ma‘qullash haqida

Ma‘lumki, Ma‘lumki, viloyatdagi issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan shakllantirilgan narxlar (tariflar) dastlabki tarzda viloyatdagi narxlarni tartibga soluvchi organlar ya‘ni Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilib, xalq deputatlari viloyat kengashining tegishli qarori bilan ma‘qullanib, viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanib kelinmoqda.

Xususan, dastlab, viloyatdagi issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023 yil 16 yanvardagi VI-63-2-11-0-K/24 -sonli qarori bilan ma‘qullanib, viloyat hokimining 2024 yil 17 fevraldagi 103-11-0-Q/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Ma‘lumot uchun: qarorga ko‘ra, 1 Gkall issiklik energiyasi “Farg‘ona issiqlik manbai” ishlab chiqirish davlat boshqarmasi xizmatiga aholi uchun 67 760 so‘m, budjet tashkilotlari hamda boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (QQS siz) 290 458,9 so‘m hamda Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ xizmatiga aholi uchun 78 650 so‘m, budjet tashkilotlari hamda boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (QQS siz) 416 471,9 so‘m etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli xatiga muvofiq viloyatdagi issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qayta ko‘rib chiqilib, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024 yil 29 martdagi VI-66-34-11-0-K/24 -sonli qarori bilan yangi narxlar (tariflar) ma‘qullangan.

Ma‘lumot uchun: qarorga ko‘ra, 2024 yil 1 sentyabr kundan 1 Gkall issiklik energiyasi “Farg‘ona issiqlik manbai” ICH davlat boshqarmasi xizmatiga aholi uchun 89 612,9 so‘m, budjet tashkilotlari hamda boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (QQS siz) 290 458,9 so‘m hamda Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ xizmatiga aholi uchun 104 014,6 so‘m, budjet tashkilotlari hamda boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (QQS siz) 416 597,0 so‘m etib belgilangan.

“Qo‘qon shahar Issiqlik ta‘minoti” MChJ tomonidan yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasi amaldagi tariflari esa Farg‘ona viloyati moliya bosh boshqarmasi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi)ning 2019-yil 15-avgustdagi UM/06-09/09-son deklarasiyasiga asosan aholi uchun 15 735,0 so‘m, budget tashkilotlari hamda boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (QQSsiz) 122 080,9 so‘m etib belgilangan.

Hozirgi kunda viloyatdagi ushbu issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan yuqoridagi narxlar (tariflar) amalda qo‘llanib kelinmoqda.

Viloyatdagi issiqlik ta‘minoti korxonalari ya‘ni Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ 2025 yil 17 iyuldagi 157-sonli, viloyat “Issiqlikta‘minot” MCHJ 28 iyuldagi 529-sonli hamda “Qo‘qon shahar Issiqlik ta‘minoti” MChJ lari 1 avgustdagi 30-sonli xatlar orqali xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-2025 yillardagi yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarining bosqichma-bosqich o‘zgartirishini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil 1 noyabr kungi 07/36-2-5281-sonli topshiriqnomasi asosida taklif etilayotgan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ko‘rib chiqish va ma‘qullash masalasini xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritilishini so‘ragan.

Viloyatdagi issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan taklif etilayotgan ushbu narxlar (tariflar) narxlarni tartibga soluvchi organlar ya‘ni Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi, shuningdek viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, ijobiy xulosa berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi **O‘RQ-1011-sonli Qonunining 13-moddasida** tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘iy nazar, hududiy issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan shakllantirilgan tariflar hududiy narxlarni tartibga soluvchi organlar tomonidan ko‘rib chiqilishi hamda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahrikengashlarining qarorlari bilan ma‘qullanganidan keyin Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Bundan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 28-yanvardagi 23-22-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2025-2026-yillar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarprognosi va davlat budjeti parametrlarini amalga oshirish yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha Yo‘lxaritasi”ning 75-bandida issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi hisobiga vujudga keladigan zararlarni qoplash uchun ajratiladigan mablag‘larni kamaytirish maqsadida, aholi uchun issiqlik ta‘minoti xizmatlari tariflarini 2025-yilda 2 bosqichda oshirgan holda qayta ko‘rib chiqish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi “Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta‘minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-100-sonli Qaroriga muvofiq, “Issiqlikta‘minoti” AJ tarkibidagi hamda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan Jamiyat bilan birgalikda shakllantirilgan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun narxlarni

(tariflarni) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tartibga solish belgilangan.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar barqaror iqtisodiy o'sishini hamda Davlat budjeti parametrlari bajarilishini ta'minlash maqsadida, issiqlik ta'minoti korxonalarining issiqlik energiyasi tariflarini o'z vaqtida qayta ko'rib chiqish bo'yicha taklifga (29.04.2025-yil №05/53-4-9433-son) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan rozilik berilib, viloyat hokimliklariga issiqlik ta'minoti korxonalarining **aholi uchun** issiqlik ta'minoti xizmatlari tariflarini **2025-yil uchun** belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish choralarini ko'rish bo'yicha 2025 yil 14 maydagi 03/1-866-sonli ko'rsatma xati yuborilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyatda issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, hududlarda issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlarini yanada jadallashtirish, shuningdek issiqlik ta'minoti korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

QAROR QILADI:

1. Farg'ona shahar "Qirguli issiqlik manbai" MCHJ 2025 yil 17 iyuldagi 157-sonli, "Qo'qon shahar Issiqlik ta'minoti" MChJ 2025 yil 1 avgustdagi 30-sonli hamda viloyat "Issiqlik ta'minot" MCHJ 28 iyuldagi 529-sonli xatlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda 2025 yil 14 maydagi 03/1-866-sonli ko'rsatma xati;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli va 2025-yil 29 apreldagi 05/53-4-9433-sonli xatlari hamda 2025 yil 28 yanvardagi 23-22-sonli buyrug'i;

- viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 4 avgustdagi 03/21-17/5341-sonli va O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 4 avgustdagi 1-04/6049, 01-04/6050 va 01-04/6052-sonli xatlari hamda viloyat hokimligining xulosalari inobatga olinsin.

3. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining "Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to'g'risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

4. Farg'ona shahar "Qirguli issiqlik manbai" MCHJ, "Qo'qon shahar Issiqlik ta'minoti" MChJ hamda viloyat "Issiqlik ta'minot" MCHJ (keying o'rinlarda - issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar) tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) (keyingi o'rinlarda - tariflar) ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Bunda, tariflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan qayta belgilangan (tartibga solingan) kunga qadar qo'llaniladi.

5. Shu munosabat bilan, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024 yil 29 martdagi VI-66-34-11-0-K/24 -sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Belgilab qo'yilgani mazkur qaror bilan ma'qullangan tariflar viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

7. Mazkur kengash qarori bilan ma'qullangan tariflar issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun shartnomalar tuzish hamda to'lovlar undirish uchun asos hisoblanmaydi.

8. Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar (I.Sotvoldiyev, N.Tojiboyev va X.Xo'jaqulov) aholi va boshqa ulgurji iste'molchilarga issiqlik ta'minoti shartnomasida nazarda tutilgan xajmda va normalarda issiqlik energiyasini belgilangan tartibda sifatli yetkazib berish, bunda, yetkazib berishda yuz bergan avariylarning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish, issiqlik energiyasi yetkazib berishni sababsiz to'xtatishga yo'l qo'ymaslik, uzib qo'yish sabablari to'g'risida darhol iste'molchilarni oldindan xabardor qilish tavsiya etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg'ona viloyati boshqarmasi (E.Usmonov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro'zaliyev), O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) mazkur Kengash qarori bilan ma'qullangan narxlar (tariflar)ni *(bu bo'yicha viloyat hokimining tegishli qarori rasman e'lon qilingandan keyin)* issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan qo'llab borilishi, narxlarning asossiz oshib ketishining oldini olish yuzasidan o'rnatilgan tartibda nazorat tadbirlarini olib borsin.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda *(viloyat hokimining tegishli qarori rasman e'lon qilingandan keyin ikki kundan kechikmay)* viloyatdagi issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni e'lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

11. Ushbu qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining "Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KOMILOV
XOLMATJON
ADILOVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 15-sentabrdagi
VII-13-128-11-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

ilova

**Viloyatdagi issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun
tartibga solinadigan (1 Gkall issiklik energiyasi uchun) narxlar (tariflar)**

Xizmat turi	Narxlar (tariflar)		
	Aholi uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun) (so‘m hisobida)	Byudjet tashkilotlari uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun QQS siz) (so‘m hisobida)	Boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun QQS siz) (so‘m hisobida)
2025 yil 1 oktabr kundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan qayta belgilanadigan (tartibga solingan) kunga qadar			
“Farg‘ona issiqlik manbai” ICH davlat boshqarmasi	129 042,6	290 458,9	290 458,9
Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ	149 782,6	416 472,0	416 472,0
Qo‘qon shahar “Issiqlik ta‘minoti” MCHJ	0	219 744,0	219 744,0

Asos: - O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda 2025 yil 14 maydagi 03/1-866-sonli xati;

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli va 2025-yil 29 apreldagi 05/53-4-9433-sonli xatlari hamda 2025 yil 28 yanvardagi 23-22-sonli buyrug‘i.